

IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA O'ZBEKISTONDA XALQ MAORIF TIZIMINING AHVOLI

Shaxnoza Abdinazarova Qalandarovna

O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Tarix Instituti tadqiqotchisi

Annotatsiya:

Ikkinchi jahon urushi yillarida O'zbekistonda barcha sohalar singari Xalq maorif tizimi ham frontga yo'naltirildi. Maktablar faoliyatini rivojlantirishda bir qator muammolar vujudga keldi. Bu muammolar maktablarda sifatsiz ta'lim-tarbiya, o'quv jihozlarining yetishmasligi, o'quv dasturlarining yo'qligi hamda kadrlar tanqisligini yuzaga keltirdi. Maqolada 1941-1945 yillarda O'zbekiston Xalq maorif tizimidagi kamchiliklar, o'quvchi va o'qituvchilarning boshqa jamoat tashkilotlariga safarbar etilishi, uning oqibatlariga haqida ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar: Xalq maorif tizimi, ko'chirib keltirilgan bolalar, ta'lim, dastur, o'qituvchilar tarkibi, maktab, paxta yig'im-terimi, safarbarlik.

Аннотация:

В годы Второй мировой войны в Узбекистане, как и во всех сферах, система народного образования была переориентирована на фронт. В развитии деятельности школ возник ряд проблем. Эти проблемы были вызваны плохим качеством образования в школах, нехваткой учебного оборудования, отсутствием учебных программ, а также нехваткой кадров. В статье рассказывается о недостатках системы народного образования Узбекистана в 1941-1945 годах, о мобилизации учащихся и учителей в другие общественные организации, о её последствиях.

Ключевые слова: Система народного образования, дети-переселенцы, образование, программа, педагогический состав, школа, сбор хлопка, мобилизация.

Annotation:

During the years of World War II the people's educational system like all spheres in Uzbekistan, was directed to the front. A number of problems have arisen in the development of the activities of schools. These problems created poor quality education in schools, lack of curricula and staff shortages. The article provides information about the shortcomings of the people's educational system of Uzbekistan in 1941-1945, the mobilization of students and teachers to other public organizations, its consequences.

Keywords: People's educational system, transplanted children, education, program, composition of teachers, school, cotton harvest, mobilization.

Ikkinchi jahon urushi butun dunyo davlatlarini larzaga keltirgan qirg'inbarot urush bo'lib, bu o'zbek xalqini ham o'z domiga tortmay qo'ymadi. Urush tufayli maktablarda ham yangicha tartiblar o'rnatildi.

1941 yil 6 noyabrda Stalinning buyrug'i bilan maktablarda har bir ishni harbiylashtirish, maktablarning armiyani mustahkamlashdagi yordamlari qanday vazifalardan iborat ekanligi belgilab qo'yildi. Birinchi navbatda, maktablarda o'quvchilar o'rtasida ommaviy harbiy-jismoniy tarbiya ishlari va maktab o'quvchilarini havoga qarshi mudofaaga tayyorlashni yo'lga qo'yish aytiladi. Shu vaqtdan boshlab maktablarda 5-10 sinflarda harbiy-jismoniy tayyorlov darslari, 1-10 sinflarda esa jismoniy tarbiya darslari hamda turli xil harbiy mudofaa to'garaklari faoliyat olib bora boshladi.¹ Bu dasturlar nafaqat maktab o'qituvchilari yoki o'quvchilariga, balki har bir 16 yoshga kirgan fuqarolar uchun ham majburiy etib belgilandi. 1-4 sinflarga dars beradigan barcha o'qituvchilarga jismoniy tarbiya darslarini kuchaytirishni, buning uchun esa ulardan harbiy mudofaa to'g'risidagi bilimlarini mustahkamlash hamda yangi kelgan o'qituvchilarga bolalar bilan ishlashda uslubiy yordam ko'rsatish talab etilgan. 16 yoshdan kichik bo'lgan o'quvchilarga havo mudofaasi bo'yicha darslar va mashg'ulotlar o'tilgan.

Urush tufayli front orti hududlaridan ko'chirib keltirilgan 200 mingdan ortiq bolalarni o'zbek vatanparvar ayollari va oilalar o'z bag'irlariga oldilar. Toshkent shahrining o'zida qisqa vaqt ichida 1941 yilning 15 noyabridan 5 dekabrigha qadar maktablardan 18000 bolalar buyumlari yig'ildi. Shahardagi 643 oila bolalarni taarbiyalash uchun o'z qaramog'iga oldi. Masalan, Toshkent shahar 22-son maktabning hurmatli o'qituvchisi Oqilxon Sharafiy, o'zining 8 nafar farzandi bo'lishiga qaramay ko'chirib keltirilgan bolani o'z tarbiyasiga oladi.²

Toshkent viloyati bo'yicha 110 dan ortiq bola tarbiyaga olingan bo'lib, tarbiyaga olganlardan 2 tasi o'qituvchi edi. Maktab o'qituvchilari har bir ko'chirib keltirilgan bolani bilishi lozimligi, uning maktab jamoasiga qiynalmasdan qo'shilib ketishi uchun yaxshi munosabatda bo'lish hamda bilim va tarbiya olishi uchun barcha maktab anjomlari bilan ta'minlab berishni nazoratga olishi kerak bo'lgan. O'qituvchilar uyma-uy yurib oilaga olayotgan xonadonning moddiy ahvolini o'rganib chiqqan. Ko'chirib keltirilgan bolalar uchun viloyat maktablaridan jami 1682 ta bolalar buyumlari hamda 1845 rubl pul jamg'armasi yig'iladi.³ Bundan ko'rinib turibdiki, o'zbek xalqining fidokor o'qituvchilari o'z kasbining jonkuyari bo'lganligi, mehnatsevarligi va har bir ishda jonbozlik ko'rsatganlar.

Urush xalq ta'limi muassasalari faoliyatini ham murakkablashtirib yubordi. Ko'pgina o'qituvchilar harakatdagi armiya safiga chaqirildi, yuqori sinflarning o'quvchilari ishlab chiqarishga safarbar qilindi. Natijada respublikadagi maktablarning umumiy soni 1942-1943

¹ Toshkent shahar Markaziy Davlat Arxivi, 21-jamg'arma, 1-ro'yxat, 12-ish, B-2.

² Toshkent shahar Markaziy Davlat Arxivi, 21-jamg'arma, 1-ro'yxat, 12-ish, B-7.

³ O'sha joyda

o'quv yilida 1940-1941 yildagiga nisbatan qisqarib, 4795 tadan 4374 taga tushib qoldi.⁴ Binolar va o'qituvchilar yetishmasligi tufayli ko'pchilik maktablarda darslar 3 smenada olib borilardi. Darsliklar, o'quv qurollari va boshqalar yetishmasdi. Lekin barcha qiyinchiliklarga qaramasdan, O'zbekiston maktablarining jamoalari gospitalarni otaliqqa oldilar, yaradorlar huzurida konsert qo'yib berdilar, frontga ketganlarning oilalariga, urush nogironlari oilalariga yordam berdilar. Harakatdagi armiya jangchilari uchun sovg'alar tayyorladilar, qishloq xo'jalik ishlarida ishtirok etdilar.

Mayda boshlang'ich maktablarning ko'plari to'liq to'plamli boshlang'ich maktablarning filiallariga aylantirildi. 180 ta maktabning binosi mudofaa ehtiyojlari uchun foydalanishga berilganligi sababli bu maktablar boshqa maktablar bilan qo'shib yuborildi. Bundan tashqari, 1942-43 o'quv yilida respublikada o'qituvchilar yetishmaganligi sababli, 200 ga yaqin boshlang'ich maktab ochilmay qoldi. Darsliklar, maktab anjomlari, uskunalar va shu kabilar yetishmay qoldi.⁵ Ushbu holat maktab bitiruvchilari sonining kamayishiga jiddiy ta'sir ko'rsatganligini asoslab beradi. Masalan, 1942-43 o'quv yilida respublikada o'ninchi sinf bitiruvchilari 2590 nafarni, 1943-44 o'quv yilida 2170 nafarni tashkil etdi.⁶ Bu juda past ko'rsatkich edi. Albatta o'rta maktab bitiruvchilari sonining kamayib ketishi, oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash ishiga ham salbiy ta'sir ko'rsatdi. 1944-1945 o'quv yilidan boshlab 4 va 7-sinflarni tamomlovchi o'quvchilardan imtihonlar olishni, yetuklik attestatlari berishni joriy qilish singari muhim tadbirlar amalga oshirildi. Albatta sovet maktabi yosh avlodni Kommunistik partiyaga va sotsialistik Vatanga mehr-muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyaladi.

Urushning og'ir sharoitlari respublikada maktablar va o'quvchilar sonining kamayib borishiga sabab bo'ldi. Urush yillarida O'zbekiston maktablari 4797 tadan 4470 taga qisqardi, o'quvchilar kontingenti esa, 1 223 369 kishidan 895 975 tagacha, ya'ni 327 393 kishi kamaydi.⁷ Toshkent viloyatida 1943-1944 o'quv yilida jami 9 ta maktab bo'lib, 1-boshlang'ich, 2-to'liqsiz o'rta, 6-o'rta maktablar edi. Ularning 3tasi erkaklar, 4tasi ayollar, 3tasi aralash turdagi maktablar bo'lib, 7tasi rus, 2tasi o'zbek-rus maktablar edi. Ulardan tashqari viloyatda 2ta ishchi yoshlar maktabi hamda 147-sonli maktabda 2ta pol sinfi ishlab turgan.⁸ Urush davrining o'sha sharoitlarida mavjud maktablar tarmog'iga ba'zi o'zgarishlar kiritildi: yetti yillik va o'rta maktablarning soni kichkina maktablar sonining birmuncha qisqarishi hisobiga oshdi. Shu munosabat bilan yetti yillik maktablar tarmog'i 1940-1941 o'quv yilidagi mavjud bo'lgan 490 tadan 852 taga yetdi.

Maktablarda yoshlar milliylik o'rniga kommunistik g'oya asosida tarbiyalanib, ular ongiga sinfiylik, partiyaviylik ruhiyati singdirildi. Bu vazifalar maorif sohasida asosiy faoliyatni olib borgan xotin-qizlar zimmasiga yuklatildi.

⁴ O'zbekiston tarixi. Ikkinchi kitob. "Sharq". T-2000. B-492.

⁵ O'zbekiston SSR tarixi. IV-Tom. "Fan". T. 1971.b-127.

⁶ O'zR MDA, P-94-jamg'arma, 5-ro'yxat, 4578-ish, b-329.

⁷ Abdullayeva M., Asqarova O., Madaminov B., Hayitboyev M. "Ta'lim tarixi". O'quv qo'llanma. "Muharrir".-T.-2013. B-94.

⁸ Toshkent shahar Markaziy Davlat Arxivi, 21-jamg'arma, 1-ro'yxat, 16-ish, b-10.

O'rganilayotgan tadqiqot materiallaridan shuni ko'rishimiz mumkinki, sovet maktablarida o'qitiladigan barcha fanlar kommunistik mafkura nuqtai nazaridan talqin etilganligi, ta'lim tizimida tarbiyalanuvchilarning hududiy-an'anaviy hamda milliy xususiyatlariga, ularning ma'naviyatini shakllantirishga jiddiy e'tibor berilmaganligi, o'qitish jarayonida sifat o'rniga son ketidan quvish holatlari ustunlik qilgan.

Maktablarni, ayniqsa, boshlang'ich sinflarni o'qituvchilar bilan ta'minlamoq uchun o'qituvchi kadrlar tayyorlaydigan qisqa muddatli kurslar tashkil etildi. Bu kurslar 1941 yildan 1943 yilga qadar 16ming o'qituvchi tayyorlab berdi.⁹ Boshqa ishlarga ketib qolgan o'qituvchilar maktablarga qaytarib yuborildi. Masalan, 1944-45 o'quv yili boshlanguncha faqat Buxoro viloyatining o'zidagina 55ming o'qituvchi maktablarga qaytib keldi. O'sha o'quv yilida bu viloyatda 796 o'qituvchi Buxoro pedagogika va o'qituvchilar institutlarining, shuningdek, pedagogika bilim yurtining sirtqi bo'limlariga jalb qilindi. Qo'qon va Buxoroda o'qituvchilar uchun ochilgan ma'ruzalar zali ishlab turdi. Bu ma'ruzalar zalida pedagogika mavzularida ma'ruzalar muntazam ravishda o'qib turildi.

O'quv dasturlari sharoitga moslashtirildi. 1943 yil 8 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan bolalarni hisobga olish va ularni majburiy ta'limga tortish haqida qaror chiqdi. Shu yili o'g'il va qizlarni alohida o'qitish ham joriy etildi. Maktabga qatnovchi qizlar soni ortdi. O'zbekistonga evakuatsiya qilinganlar soni ortib bordi. Ular 1942 yili 716 mingga yetdi. 1943 yil 154 ta, 1945 yili 242 ta bolalar uyi bor edi.

Qishloq sovetlari faollarining o'zlari bolalarini maktablarga yubormadi. Masalan, Andijon viloyati Voroshilov tumanidagi qishloq soveti raislari 3 nafarining, kolxoz raislari 13 nafarining farzandlari maktabga qatnamadi.¹⁰ Bu kabi holatlarning barchasi ta'lim muassasalarining ish jarayoniga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Natijada 1941-1942 o'quv yilida O'zbekistonda umumta'lim muassasalari rejasi to'la bajarilmadi. Maktab yoshidagi 179 ming bola o'qishga jalb etilmay qoldi. Urush tufayli mehnatga yaroqli erkaklarning armiyaga safarbar qilinganligi ishlab chiqarish tarmoqlarida ishchilar va injener-texnik kadrlar tanqisligi paydo bo'lishiga olib keldi. Shu bois kadrlar tayyorlash muammosi avvalo fabrika-zavod ta'limi maktablarida, hunar bilim yurtlari, qisqa muddatli turli kurslarda, oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida hal qilindi. Shundan so'ng respublikada yakka tartibda va brigada tariqasida hunar o'rganish va ikkinchi ixtisoslikni egallash yo'lga qo'yildi.

Respublikada 1945 yili 4467 ta maktablar faoliyat yuritib, ulardan 415 tasi shahar, 4052 tasi qishloq maktablari edi. Bu maktablarda jami 896 ming nafar o'quvchi ta'lim olgan. Barcha turdagi maktablarda 33590 ming nafar o'qituvchi faoliyat yuritgan bo'lib, ulardan 4554 tasi ayollar bo'lgan. Ya'ni fan va maorif sohasida xotin-qizlar salmog'i ortishi hamda ijtimoiy ishlab chiqarishda ularning keng ishtiroki ta'minlandi. Lekin, bu jarayon, o'z mohiyatiga ko'ra, salbiy ta'sir ko'rsatdi. Shuningdek, o'zbek ayollarini oiladan ko'ra jamiyat hayotida

⁹ O'zbekiston SSR tarixi. IV-Tom. "Fan". T. 1971.b-128.

¹⁰ O'zR MDA, P-94-jamg'arma, 5-ro'yaxat, 4578-ish, b-330.

erkaklar bilan teng asosda ishtirok etishni istaydigan shaxslar qilib tarbiyalash asosiy vazifa qilib belgilandi.

Urush yillarida maktablarning binolarini bolalar uylari, internatlar va harbiy gospitalarga bo'shatib berilganligi hamda o'quvchi va o'qituvchilarning qishloq xo'jaligi ishlariga, fabrika zavodlarga jalb etilganligi natijasida albatta maktablarning ko'pi faoliyat olib borolmadi. Shu sababli maktab binolari ta'mir talab holatga kelib qolgandi. Maktablar binolarini birmuncha yaxshilash maqsadida 1944 yil 9 oktabrda O'zbekiston SSR Xalq Komissarlari Sovetining 1238-sonli qarori bilan shaharlar va rayon markazlaridagi maktablarni asosiy ta'mirlash uchun mahalliy byudjetlardagi "Maorif" degan bo'lim boyicha jami 2 million so'm qo'shimcha pul ajratilgan¹¹ va ular viloyatlarga quyidagicha taqsimlangan:

- | | |
|---------------------------|---------------|
| 1. Andijon viloyatiga | 150 ming so'm |
| 2. Buxoro viloyatiga | 400 ming so'm |
| 3. Qashqadaryo viloyatiga | 200 ming so'm |
| 4. Namangan viloyatiga | 200 ming so'm |
| 5. Surxondaryo viloyatiga | 150 ming so'm |
| 6. Toshkent viloyatiga | 200 ming so'm |
| 7. Toshkent shahriga | 150 ming so'm |
| 8. Farg'ona viloyatiga | 250 ming so'm |
| 9. Xorazm viloyatiga | 150 ming so'm |

10. Qoraqalpog'iston ASSRga 150 ming so'mni tashkil etgan. Shuningdek ularga binokorlik materiallarini joyida topib olish va maktablarning ta'mirini joriy yilning oktyabr oyi mobaynida tamomlash majburiyati yuklangan.¹²

Urushning ayanchli oqibatlaridan albatta jabrdiyda xalqimiz tez fursatda o'zini o'nglay olmasdi. Vaholanki, urush O'zbekiston aholisining nafaqat ma'naviy-ma'rifiy balki ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini og'irlashtirib yubordi. Bu paytda hukumat tomonidan ham har bir sohaga yetarlicha mablag' ajratilmagan. Ajratilgan mablag'lar ham to'g'ri taqsimlab ishlatilmagan. Masalan, tekshirishlar natijasida aniqlanganki, O'z SSR XKS va O'zK(b)P MKning "Maktablarning ishini yaxshilash va xalq maorifi ishlariga partiya hamda sovet tashkilotlarining rahbarligini kuchaytirish choralari to'g'risida" 1944 yil 10-18 aprelda chiqarilgan qarori Qashqadaryo viloyatida asosan bajarilmagan. Maktab yoshidagi bolalarni hisobga olish shu vaqtgacha tamomlanmagan; maktab binolarining ko'pi sifatsiz ta'mirlangan; 5 ta maktab esa umuman ta'mirlanmagan; maktablar o'qituvchi, darslik va daftarlar bilan ta'minlanmagan; 1944 yilda o'qishni tamomlaganlar o'rtasida ajratilgan o'qituvchilarni Qashqadaryo viloyatiga jo'natishni Maorif xalq komissarligi ta'minlamagan.¹³

¹¹ O'z R Qashqadaryo viloyat Arxivining Qarshi filiali C-133 Jamg'arma, 1-ro'yxat, 217-ish, b-46.

¹² O'z R Qashqadaryo viloyat Arxivining Qarshi filiali C-133 Jamg'arma, 1-ro'yxat, 210-ish, b-11.

¹³ O'z R Qashqadaryo viloyat Arxivining Qarshi filiali C-133 Jamg'arma, 1-ro'yxat, 213-ish, b-1

50 dan ortiq boshlang'ich maktablar o'qishni 1 sentabrdan keyin boshlaganlar, 22 ta maktab esa, o'qituvchilar yo'qligidan dekabr oyida ham o'qishni boshlagan emas. Urush yakunlab qolsa ham haligacha maktab hodimlari xalq maorifi ishiga doir bo'lmagan boshqa ishlarga safarbar qilingan. VII sinf o'quvchilarining maktabga qatnovlari 70% dan oshmagan, ayrim tumanlarda esa bundan ham pastroq. Masalan, viloyatning Ko'kabuloq tumanida 35%, Beshkentda 60%, Shahrisabz shaharida Kirov nomli to'liq o'rta o'zbek maktabiga qatnash 25% natijani tashkil etgan¹⁴. Qarshi shahridagi maktablarda esa o'qituvchilar uchun oshxona tashkil qilinmaganligini arxiv hujjatlari tasdiqlaydi. Ushbu kamchiliklardan kelib chiqib, xalq maorifi bo'limiga o'quv yoshidagi bolalarni to'la ravishda maktablarga tortish va ularning maktablarda normal o'qishini ta'minlash; 1945 yil 1 yanvargacha o'smirlarni hisobga olish va qishloq yoshlari uchun maktablar tashkil qilish; boshqa tashkilotlarda ishlab turgan o'qituvchilarni o'n kun ichida o'z ixtisoslari bo'yicha ishlashga qaytarish; pedagogik ma'lumotga ega bo'lgan kishilarni o'z ixtisoslaridan tashqari ishga qabul qilish muassasa va tashkilotlarning rahbarlariga ta'qiqlab qo'yish; o'quvchi va o'qituvchilarni o'qishdan qoldirib, qishloq xo'jaligi ishlariga jalb qilishni ta'qiqlash; viloyatdagi ikkita bolalar texnika stansiyasi 1945 yil 1 yanvargacha tiklanib, bularning normal ishlashini ta'minlash; har bir maktab qoshida jamoatchilik qatnashi bilan muhtoj o'qituvchilarga va birinchi galda frontchilarning bolalariga yordam ko'rsatish fondini tashkil qilish;¹⁵ maktab yonidagi yer uchastkalaridan olingan hosil va kolxozlarning yordami bilan barcha qishloq maktablarida issiq ovqat berishni tashkil qilishni ta'minlash; Qashqadaryo viloyatidagi maktablarda yer uchastkalari berish va maktab hodimlariga tegishli uy-joy hamda maishiy sharoit yaratish, Qarshi shahrida o'qituvchilar uchun oshxona tashkil qilish; 1944 yil dekabrdan kechiktirmay viloyatga 30 ta o'qituvchi yuborish, viloyat xalq maorifi bo'limining tizimini mustahkamlash uchun 3 hodim yuborish; o'qituvchilar va yuqori sinf o'quvchilari uchun o'zbek va rus tillarida ma'ruzalar o'qish uchun lektorlar yuborish vazifalari qo'yiladi.

Maktab o'quvchilari paxta yig'im-terim ishlariga o'g'il va qiz bolalarni ayrim-ayrim guruh qilib, guruh boshlig'i maktab o'qituvchilaridan tayinlanib jo'natilgan va barcha maktab, oliy o'quv yurtlari hamda texnikumlarning jamoa boshlig'i qilib paxta yig'im-terimiga tegishli o'quv muassasalarining direktorlari, shuningdek, partiya, Komsomol va kasaba uyushma tashkilotlarining rahbarlari jo'nab ketilgan. Umumiy paxta terish topshirig'i 30-40 kilogramm paxta miqdoridagi bir kunlik ish normasiga asoslanib belgilangan. Masalan, 1941 yilda Toshkent viloyatidagi barcha maktablarning 10 sinf o'quvchilaridan paxta yig'im-terimiga 420 kishi chiqarilgan bo'lib, oxirida ularning soni 388 kishiga kamayadi va ular tomonidan jami 296,5 t paxta terib olinadi.¹⁶

¹⁴ O'z R Qashqadaryo viloyat Arxivining Qarshi filiali C-133 Jamg'arma, 1-ro'yxat, 213-ish, b-1.

¹⁵ O'z R Qashqadaryo viloyat Arxivining Qarshi filiali C-133 Jamg'arma, 1-ro'yxat, 213-ish, b-2.

¹⁶ Toshkent shahar Markaziy Davlat Arxivi, 21-jamg'arma, 1-ro'yxat, 12-ish, b-9.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, urush yillarida O'zbekiston aholisi eng og'ir kunlarni boshidan kechirsada, metin irodasi, mehnatkashligi, mehr-oqibati hamda yuksak insoniylik fazilatlari bilan frontga qarshi kurasha oldi. Afsuski, jamiyatimizdagi maktab o'quvchilari, o'qituvchi va shifokorlar eng arzon, aniqrog'i tekin ishchi kuchi bo'lib xizmat qildi. Ayniqsa, paxta va g'alla mavsumida eng ko'p ularning mehnatidan foydalanildi. Har yangi o'quv yili boshlanishi bilan ularning vaqti ko'proq maktabda emas, balki paxta dalalarida o'tdi. Natijada respublikada yoppasiga savodsizlik kuzatildi, o'quvchilarning maktabga qatnash davomati pasayib ketdi hamda o'qituvchilarning soni ham kamayib ketdi. O'qituvchilar o'z ustida ishlash o'rniga, dalalarda paxta terdi, teraverdi. Bu esa yosh avlodni tarbiyalashda eng katta muammolar keltirib chiqardi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. O'zbekiston SSR tarixi. IV-Tom. "Fan". T-1971. B-128.
2. Abdullayeva M., Asqarova O'., Madaminov B., Hayitboyev M. "Ta'lim tarixi". O'quv qo'llanma.-"Muharrir".-T.-2013. B-94.
3. O'zbekistonning yangi tarixi. 2-kitob. T.-2000. "Sharq". B-456.
4. O'zR MDA, P-94-jamg'arma, 5-ro'yxat, 4578-ish, b-330.
5. O'z R Qashqadaryo viloyat Arxivining Qarshi filiali C-133 Jamg'arma, 1-ro'yxat, 210-ish, b-37.
6. O'z R Qashqadaryo viloyat Arxivining Qarshi filiali C-133 Jamg'arma, 1-ro'yxat, 218-ish, b-2.
7. Toshkent shahar Markaziy Davlat Arxivi 21-jamg'arma, 1-ro'yxat, 12-ish, 2- 7-betlar.
8. Toshkent shahar Markaziy Davlat Arxivi 21-jamg'arma, 1-ro'yxat, 16-ish, bet-9.